

Maktabga joylashtirishda ayrim hollarda bola o'qituvchilar bilan suhbatdan o'tadi, ular bolaning qaysi sinfda o'qishini aniqlashadi. Agar o'qituvchilar bola rus tilini etarli darajada bilmaganligi uchun uni bir sinf quyida oqishini taklif etishsa, bundan tashvishlanmang.

Bolalar bog'chasi va maktab uchun zarur hujjatlar (asli va nusxalari):

- bolaning pasporti va ota-onasidan birining pasporti;
- bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi;
- bolaning va ota-onasidan birining muhojirlik kartasi;
- bola va ota-onasidan birini muhojirlik qaydiga (registrasiya) (bola maktabga yo bolalar bog'chasiga boradigan rayonda); qo'yish borasidagi qaror bildiruvi;
- bolada bor bo'lgan tibbiy karta;
- 026 tibbiy ma'lumoti va emlashlar haqidagi sertifikat (bolalar tibbiy klinikalarida pullik rasmiylashtiriladi);
- bolaning oldingi maktabidagi shaxsiy ishi (agar u o'qigan bo'lsa).

Odatda shuningdek hujjatlarning notarial jihatdan tasdiqlangan rus tiliga tarjimasini talab etiladi, ba'zan bolaning tibbiy polisini talab qilishlari mumkin.

Agar bolaning ota-onasidan biri – EOISH fuqarosi bo'lsa va uning mehnat shartnomasi bo'lsa, bolaning registratsiyasini shu asosda mehnat shartnomasi amal qiladigan muddatga uzaytirish mumkin.

Авторы-составители: Якимов А.Н., Хлызова Д.В.  
Редактор: Панич Б.Л.



БФ «ПСП-ФОНД»

Буклет «Медицинская и социальная помощь. Образование детей. Социальная и культурная адаптация. Советы трудовым мигрантам» (на узбекском языке).

Разработан БФ «ПСП-фонд» в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.



Siz **Leningrad viloyati Umumiy va kasbiy ta'lim komitetiga murojaat qilib**, Leningrad viloyatidagi maktablar va bolalar bog'chalari haqida batafsil bilib olishingiz va shuningdek, bolalar bog'chasi va maktabga joylashtirishga oid ariza va shikoyatlar yo'llashingiz mumkin:

sayt: [www.edu.lenobl.ru](http://www.edu.lenobl.ru)  
e-mail: [office\\_edu@lenreg.ru](mailto:office_edu@lenreg.ru)  
tel.: 8 (812) 539-44-50, 8 (812) 539-50-90

Bolani ta'lim muassasasiga joylashtirishga oid qiyinchiliklar haqida shuningdek **Leningrad viloyatidagi Bola huquqlari bo'yicha vakil apparatiga** ham xabar berish mumkin:

sayt: [47deti.ru](http://47deti.ru)  
e-mail: [mail@47deti.ru](mailto:mail@47deti.ru)  
tel.: 8 (812) 400-36-49, 8 (812) 710-00-15

Agar bola Rossiya maktabida o'qishga tayyor bo'lmasa, rus tilini yomon bilsa, rus bolalar bilan qiyin muloqot gilsa, «**Peterburg bolalari**» **ijtimoiy tashkilotiga** murojaat qilish mumkin:

sayt: [detipeterburga.ru](http://detipeterburga.ru)  
tel.: 8 (911) 773-77-87

Bolalarning rus tilini mustaqil o'rganishlari uchun foydalanish mumkin:

- A.S. Pushkin nomli rus tili institutining «Rus tili bizning bolalar uchun» portali [rus4chld.pushkininstitute.ru](http://rus4chld.pushkininstitute.ru)
- Sankt-Peterburgning Admiraltey rayonidagi boshlang'ich maktabda rus tilini qo'llash IMS (axborot metodik markazi)ning «Govorusha» portali: [www.govorusha.adm-edu.spb.ru](http://www.govorusha.adm-edu.spb.ru)

## IJTIMOIIY-MADANIY MOSLASHISH

Rossiyaga tez moslashib ketish uchun, Sizga mahalliy aholi bilan ko'proq muloqot qilishni, do'stlar orttirishni, bayramlarda va turli madaniy tadbirlarda qatnashishni, kino, muzey, teatr, kutubxonalarda bo'lishni maslahat beramiz.

Sayt va ilovalar yordamida rus tili bilimingiz darajasini oshiring, masalan:

- «Rossiya hamma uchun» (o'zbekcha) – rus tili, Rossiya tarixi va qonunchiligi asoslarini o'rganish uchun mobil ilova.



- TORFL GO- chet ellik sifatida mobil ilova orqali rus tilidan test topshirish.

- [pushkininstitute.ru](http://pushkininstitute.ru) – «Образование на русском» portali.

Leningrad viloyatida xalqaro mavzudagi tadbirlarni Leningrad viloyati xalqaro va mazhablararo munosabatlar mahalliy boshqaruv komiteti, Leningrad viloyati Do'stlik uyi, ijtimoiy tashkilotlar o'tkazadi. Sizga tez moslashish, mahalliy madaniyat va an'alarini bilib olish va yangi do'stlar orttirish uchun bu tadbirlarda qatnashishingizni maslahat beramiz.

- **Leningrad viloyati xalqaro va mazhablararo munosabatlar mahalliy boshqaruv komiteti**  
sayt: [msu.lenobl.ru/ru](http://msu.lenobl.ru/ru)  
e-mail: [msu@lenreg.ru](mailto:msu@lenreg.ru)  
trl.: 8 (812) 539-52-33

- **Leningrad viloyati Do'stlik uyi**  
sayt: [forumnarodov47.ru](http://forumnarodov47.ru)  
e-mail: [ddlo47@mail.ru](mailto:ddlo47@mail.ru)  
tel.: 8 (812) 670-81-43

## Foydali axborot resurslari

**migrantlenobl** – mehnat muholirlari va ularning oila a'zolari uchun mobil ilova va sayt - «Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!»

**migrussia.ru** – «Muhojirlar va muhojirlik: axborot portali» (muhojirlar va ular bilah ishlaydigan mutaxassislar uchun moslashish va huquqiy qo'llov bo'yicha maslahatlar)

**russia.study** – Ta'lim va ilm vazirligining chet ellik fuqarolarni RF oliy o'quv yutlarida o'qishga tanlab olish uchun rasmiy sayti

## Бесплатная правовая помощь

**БФ «ПСП-фонд»**  
sayt: [psp-f.org](http://psp-f.org)  
tel.: 8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09



Комитет по местному самоуправлению,  
межнациональным и  
межконфессиональным отношениям  
Ленинградской области



migrantlenobl

## MUHOJIR MAKTABI

# Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!

## Tibbiy va ijtimoiy yordam Bolalar ta'limi Ijtimoiy va madaniy moslashish

## Mehnat muhojirlariga maslahatlar

2020

## TIBBIY YORDAM

Tez tibbiy yordam olish uchun mobil telefondan **103 yoki 112** raqamlariga qo'ng'roq qiling.

**Hayotingiz va salomatligingizga xavf tug'ilgan holatda Sizga bepul tez yordam ko'rsatishlari shart, hatto Sizda tibbiyot polisi va hujjatlaringiz bo'lmasa-da!**

Tibbiy yordamlardan foydalanish imkoniyati bo'lishi uchun Siz ixtiyoriy tibbiy sug'urta (ITS-DMS) polisi olishingiz zarur.

ITS polisi quyidagi huquqlarni beradi:

- poliklinika, bemorxonada zudlik bilan yordam ko'rsatish;
- tez va to'xtovsiz tibbiy yordam ko'rsatish;
- ITS shartnomasida nazarda tutilgan boshqa xizmatlar.

*ITS polisi narxi unda yozilgan tibbiy xizmatlar va amal qilish muddatiga bog'liq. Mehnat muhojirlari uchun eng arzon ITS polisi, odatda, faqat davlat poliklinikalari va bemorxonalarida tez va to'xtovsiz tibbiy yordam ko'rsatish narxini qoplaydi.*

*Chet ellik fuqarolarning bolalari uchun ITS polisi – odatda katta yoshli kishilarning tibbiy sug'urtasidan qimmat turadi. Qimmatli ITS polislari ayniqsa emizikli va yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun nazarda tutilgan, chunki ular tez-tez kasallanib turishadi va qimmat turadigan davolanish talab etiladi. ITS polisini shuningdek bolani maktabga qabul qilishda so'rashlari mumkin. Buni unutmang, bolalarga tez tibbiy yordam ko'rsatish har qanday holatda ham bepul!*

*Afar ayol gomiladorlik va tug'ish paytida rejali tibbiy yordam olishni istasa, unga bu haqda ITS polisini rasmiylashtirish paytida albatta aytish zarur, chunki bunda maxsus sug'urta dasturi talab etiladi.*

ITS polisini rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar zarur:

- passport va pasportning notarial tasdiqlangan tarjimasi;
- muhojirlik kartasi va uning nusxasi;
- muhojirlik qaydiga (registrasiya) qo'yish va uning nusxasi.

ITS polisini barcha sug'urta shirkatlari va «Pochti Rossii» bo'limlarida rasmiylashtirish mumkin.

Agar Siz ITS polisini ish beruvchingiz orqali rasmiylashtirsangiz, Sizga qo'shimcha tarzda Sizni tashkilotingiz rahbarining imzo huquqi bilan ishonchnomasi zarur bo'ladi.

**Rossiyada mehnat shartnomalari asosida ishlayotgan EOISH a'zo-davlatlari fuqarolari majburiy tibbiy sug'urta (MTC-OMS) polisini rasmiylashtirishlari mumkin.**

MTC polisini rasmiylashtirish uchun – Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi fuqarolari sug'urta tibbiy tashkilotini tanlashlari zarur – odatda, buni kelgan eridagi poliklinikada qilish mumkin.

MTC polisini rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar zarur:

- passport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat.
  - SNILS (shaxsiy hisob sug'urta raqami);
  - mehnat shartnomasi;
  - kelganligi (registrasiya) haqidagi bildiruv varaqasining uzib olingan qismi yoki kelgan joy va turish muddati ko'rsatilgan nusxasi.
- RFda ishlayotgan EOISH fuqarolariga MTC polisi **qog'oz ko'rinishida beriladi** va uning **amal qilish muddati bo'ladi** – taqvim yili oxirigacha, lekin mehnat shartnomasi amal qilish muddatidan ortiq emas.

Shuningdek, MTC polisini olishlari mumkin:

- vaqtincha yashash ijozatiga (RVP) ega bo'lgan fuqarolar;
- Yashash huquqiga (VNJ) ega bo'lgan fuqarolar;
- vaqtincha boshpana berilganligiga oid guvohnomasi bor fuqarolar;
- qochqinlar .

Sizga ITS yo MTS polisini bergan sug'urta tashkiloti telefon raqamini va nomini albatta eslab oling – agar Siz o'z polisingizni yo qotsangiz, Siz sug'urta shirkatiga murojaat qilib, uni tiklashingiz mumkin, yoki tez tibbiy yordam zarur holatda uning rasmiylashtirilganini tasdiqlatish uchun.

**Sug'urta polisini tayyorlatish u yo'qolgan holatda foydalidir.**

Tez yordamda olib ketilganlar borasida axborot olish uchun Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha baxtsiz hodisalarni qayd etish byorosiga murojaat qiling: 8 (812) 573-66-66, 8 (812) 573-66-63.

Agar tez yordam chaqiriqqa kelmasa yo Sizni davolashni rad etsa, tez yordam ishi bo'yicha shikoyatlar telefoniga qo'ngiroq qiling: 8 (812) 456-11-33 (Leningrad viloyati).

Tez yordam ko'rsatishga oid muammo paydo bo'lgan holatda Sog'liqni saqlash vazirligining «qaynoq tarmog'i» ga murojaat etish mumkin: 8 (800) 200-03-89.

**Koronavirus pandemiyasi davrida** alohida ehtiyot choralariga rioya qilish muhimdir.

Pandemiya davrida bemorlik oldini olish va davolanishga oid tibbiy axborot va chet ellik fuqarolarning RFda bo'lishlarining alohida huquqiy rejimi borasida quyidagi saytlarda tanishish mumkin:

стопкоронавирус.рф  
<https://lenobl.ru/ru/minus-koronavirus/>

- **Leningrad viloyati Sog'liqni saqlash komiteti** (tibbiy yordam olishga oid murakkabliklar):  
sayt: [health.lenobl.ru](http://health.lenobl.ru)  
e-mail: [tzm.k.lenobl@mail.ru](mailto:tzm.k.lenobl@mail.ru)  
tel.: 8 (812) 679-60-04
- **Roszdraznavdorning Sankt-Peterburg sh. va Leningrad viloyati bo'yicha hududiy maqomoti** (tibbiy yordam olishga oid murakkabliklar):  
sayt: [78reg.roszdraznavdзор.gov.ru](http://78reg.roszdraznavdзор.gov.ru)  
e-mail: [info@reg78.roszdraznavdзор.gov.ru](mailto:info@reg78.roszdraznavdзор.gov.ru)  
tel.: 8 (812) 314-67-89

## IJTIMOY YORDAM

Chet ellik fuqarolar (shuningdek ularning oila a'zolari), yashash huquqiga ega bo'lganlar, shuningdek, chet elliklar – RF fuqarolari oilalari a'zolari ijtimoiy yordam olish huquqiga egadirlar.

Ijtimoiy yordam olish uchun registrasiyadan o'tilgan erdagi rayon aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish kompleks markazlariga (KSSON) yoki rayoningiz ma'muriyatidagi ijtimoiy himoya davlat maqomotlariga murojaat qilishingiz mumkin.

- **Leningrad viloyati Aholini ijtimoiy himoyalash komiteti** (ijtimoiy ko'mak olish uchun):  
sayt: [social.lenobl.ru](http://social.lenobl.ru)  
e-mail: [ktszn@lenreg.ru](mailto:ktszn@lenreg.ru)  
tel.: 8 (812) 539-46-46
- **Leningrad viloyati Birlashgan ijtimoiy telefoni:**  
8 (812) 225-27-70

## BOLALAR TA'LIMI

Chet ellik fuqarolar bolalari RF fuqarolari bolalari kabi davlat bolalar bog'chalari va maktablarga bepul qatnash hiqquqiga egadirlar.

**Maktab yoshidagi bolalarning ota-onalari qonunga ko'ra bolani maktabga berishlari shart!**

Bolalar RF hududida qonun asosida bo'lishlari zarur, ya'ni muhojirlik kartasi bo'lishi va muhojirlik qaydida turishi (kelgan joyida registrasiyadan o'tishi) zarur.

**Chet elliklarning 18 yoshga to'lmagan bolalari RFda ishlash huquqiga ega emaslar!**

Bolalarni bolalar bog'chalariga ertaroq joylashtirishni maslahat beramiz: keyingi o'quv yili uchun (1 sentyabrdan) bolalar bog'chalari va maktabning birinchi sinfi uchun qabul fevral-aprel oyidan, maktablar uchun navbatdagi o'quv yiluga qabul aprel-may oylaridan boshlanadi.

Bolalar bog'chasi yoki maktabning birinchi sinfiga joylashtirish uchun KVM (MFS) – registrasiyasidan o'tgan eringizdagi ko'p vazifali markazga murojaat qilmoq zarur. Leningrad viloyatidagi rayonlar ko'p vazifali markazlar ro'yxatini quyidagi sayt ba telefondan topishingiz mumkin: [mfc47.ru](http://mfc47.ru) va tel: 8 (800) 301-47-47.

Maktabda o'qish uchun rayon maorif bo'limiga murojaat etish zarur. O'z rayoningizdagi maorif bo'limi bilan muloqotlarni bilish uchun saytga yoki [migrantlenobl.ru](http://migrantlenobl.ru) mobil ilovasiga kiring.

**Agar ota-onalar maktabga murojaat qilib, rad javobi olishsa, rayon maorif bo'limiga murojaat etish zarur, u erda maktablarning biridan o'rin ajratishlari shart.**